

ABDULLA QAHHOR ASARLARI TAHLILI

To'lanova Zulhumor Xudoberdi qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hayoti, uning ijodiy namunalari, asarlari tahlili haqida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *hikoya, ma'naviyat, kitob, Gorkiy asarlari, hikoya tili, monografiya, ijtimoiy muammo, hikoya qahramoni.*

Har bir insonni yetuk shaxs sifatida shakllanishida yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishida insonni ezgu maqsadlar tomon eltadigan, ongi va shuurini munavvar etadigan adabiy asarlar zarurdir. Buyuk adibimiz Cho'lpon tabiri bilan aytganda "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma'rifat suvi, ...chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artib, tozalaydurgan buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur". O'z asarlari bilan adabiyot ixlosmandlarining yuragidan chuqur o'rin egallangan adiblardan biri Abdulla Qahhor hisoblanadi. Oz so'zda ko'p ma'no ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan buyuk ijodkorning asarlarini o'qimagan kitobxonlar kam bo'lsa kerak. Abdulla Qahhor – O'zbekiston xalq yozuvchisi . 1907-yil Qo'qonda temirchi oilasida tug'ilgan. Bolaligi Qo'qon va uning atrofidagi qishloqlarda o'tdi. Oqqo'rg'on qishlog'idagi Mamajon qorining usuli savtiya maktabida tahsil ko'rdi. Oilasi Qo'qonga ko'chib kelgach „Istiqlol“ nomli sho'ro maktabiga o'qishga kiradi, undan keyin internat, „Kommuna“, „Namuna“ maktablarida, so'ng bilim yurtida tahsil ko'radi. Bilim yurtining „Adib“ qo'lyozma jurnalida dastlabki mashqlari bilan qatnashadi. Toshkentdagi „Qizil O'zbekiston“ gazetasi tahririyatining „Ishchi-batrak maktublari“ varaqasiga muharrirlik qildi (1925). U gazetada ishlash jarayonida O'rta Osiyo davlat universitetining ishchilar fakultetini tamomlaydi (1928). Abdulla Qahhor yana Qo'qonga borib, dastlab o'qituvchilarni qayta tayyorlash kursida muallimlik qiladi, ko'p o'tmay „Yangi Farg'ona“ viloyat gazetasiga kotib va „Chig'iriq“ hajviy bo'limiga mudir etib tayinlanadi (1929). Abdulla Qahhorning „Oy kuyganda“ ilk hajviy she'ri „Mushtum“ jurnalida Norin shilpiq taxallusi ostida bosildi (1924). So'ng uning bir qancha hajviy she'r va hikoyalari „Mushtum“, „Yangi yo'l“ jurnallari va „Qizil O'zbekiston“ gazetasida Mavlon kufur, Gulyor, Nish, Erkaboy, E-voy kabi taxalluslar ostida e'lon qilindi.

Abdulla Qahhorning hikoya janriga kirib kelishi 1926-yil Gorkiy asarlari bilan tanishishi va bu asarlar unda hikoya yozish istagini kuchaytirganini aytadi. "Men - deb yozadi adib - rus tilini Gorkiy asarlari bo'yicha o'rgandim deb g'urur bilan ayta olaman. " Chalkash" hikoyasini o'qib chiqqach menda

hikoya yozishga havas uyg'ondi. " Chalkash " men uchun ijod namunasi o'qish o'rganish ishimda qo'limdan tushmaydigan kitobim bo'lib qoldi " , - deydi Abdulla Qahhor.

Abdulla Qahhorning nazmdan tortib nasrgacha bo'lgan keng qamrovli ijodida hikoya janri yaqqol ajralib turadi. Uning hikoyalarida o'zgacha ruh, pafos ufurib turadi. Uning hikoyalari adabiyot gulshanidagi boshqa ijodkor yozuvchilarning hikoyalaridan tubdan farq qiladi. Abdulla Qahhor shunchaki qalam tebratmaydi, u hikoyalarida davr uchun dolzarb bo'lgan mavzuni yoritadi. U hikoyalarida kam so'z qo'llab , butun boshli hikoyaning mazmunini sodda, ravon tilda yoritib bera oladigan mohir hikoyanavis hamdir. U hikoyaga kiritgan oddiy bir detal ham ma'lum bir maqsad bilan kiritiladi va o'zida ma'lum bir yukni tashiydi . Aynan, Abdulla Qahhor "Qahhor" qilib turgan mana shunda desak mubolag'a bo'lmaydi.Uning hikoyalarini o'qir ekanmiz ,bularga amin bo'lamiz. Qahhor hikoyalarining har birida davrning ijtimoiy muammolari goh kuchli dramatism zaminiga goh achchiq satira ostida yoritiladi va buning yechimi sirliligicha qoldiriladi, kitobxonning o'ziga havola etiladi. Bundan tashqari , Qahhor hikoyalarida epigraflardan unumli va o'rinli foydalangan ijodkordir. Kitobxon butun hikoyani o'qimasa ham epigrafdan hikoya mazmunini anglab oladi.

Quyida Abdulla Qahhor hikoyalarini tahlil qilishdan avval shuni aytib o'tishni joiz bildik. Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi yuzasidan qilingan ishlar, monografiyalarni o'qib shunga guvoh bo'ldikki, Qahhorning ba'zi hikoyalari syujetida keltirilgan har bir voqea aynan o'zining boshidan kechirgan, o'zi guvoh bo'lgan voqealar asosiga qurilganligi, uning hikoyalariga kiritilgan har bir qahramon uning yaqinlari ekanligiga amin bo'ldik. Bu haqidagi ma'lumotlar hikoyalar tahlili davomida batafsil yoritilgan.

Ijodkorning bahs-munozaralarga sabab bo'lgan " Anor" nomli hikoyasida jamiyat keltirib chiqargan , ijtimoiy qashshoqlik va uning oqibatlari haqida yozadi. Bu hikoya bir necha qahhorshunos olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan. Birgina buyuk tanqidchi, qahhorshunos olim Ozod Sharafiddinovning tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, olim hikoya haqida quyidagicha xulosaga keladi: " Turibjon va xotinining fojiasi baxtsizligining sababi - ijtimoiy tengsizlikdir. Olim hikoyani sotsializm talablariga ko'ra : insonlarni ijtimoiy jihatdan baravar qilib yashatishi har tomonlama tahlil qiladi.Ammo afsuski, hech bir jamiyatda fuqarolar ijtimoiy jihatdan teng huquqli emaslar. Buning isboti "Anor " hikoyasida ham o'z aksini topgan. Mazkur hikoyada ijtimoiy tengsizlik bilan bir qatorda o'sha davrning juda katta fojialaridan biri - nochorlik, kambag'allik kabi illatlar aks ettirilgan. Asar bosh qahramoni Turobjon nochorlik, kambag'alchilik tufayli xotinining boshqorong'u paytida yegisi kelgan anorni olib kelib berolmagani va xotini g'ururiga tegib gapirishi oqibatida, hatto o'g'irlikka borish holati tasvirlanadi. Bir necha olimlar tomonidan hikoyada "anor " detali noto'g'ri tanlanganligi ,

negaki hech bir zamonda anor mevasi qimmat sotilmaganligini aytib o'tishgan. Bundan fikrlarga qarama-qarshi ravishda, o'z fikrlarimni aytib o'tishni joiz bildim . Hikoyani XX asr boshidagi o'zbek xalqining nochorlik , ocharchilik holatidan kelib chiqib, tahlil qiladigan bo'lsak , " anor " detali juda to'g'ri tanlangan, negaki o'sha zamonda ba'zi insonlar hattoki non olib yeyishga qurbi yetmagan, a'avaholanki non o'sha davrda ham hozirda ham qimmat yegulik hisoblanmagan. Bu fikrlardan quyidagi xulosa kelishimiz mumkin: "o'sha davrdagi insonlar uchun non yeyish shukronalik hissi bo'lsa , anor ular ularning xayollaridagi orzu bo'lib qolgan" . Bundan tashqari, hikoyadagi "anor" detali majoziy yuk ham tashigan .Ijodkor nochorlik sababli Turobjon va xotini o'rtasida darz ketgan munosabatlarini, anor donalari kabi sochilib ketganligiga qiyoslaydi.

Ana shunday shafqatsiz ocharchilik davrida taqdirning shafqatsiz kaltagi oddiy xalqning boshiga yo'g'rilgan. Davlat tepasida turgan mansabdor shaxslar esa o'z foydalari evaziga oddiy xalqdan foydalanishgan. Buni aynan , yozuvchi ijodidagi "Bemor" va " O'g'ri" hikoyalarida ko'rishimiz mumkin. " Bemor" hikoyasi kichik hajmli va mo'jazgina bo'lishiga qaramasdan hikoyaning salmog'i, zalvori ancha katta. Ijodkor yashab turgan va qisman bugungi kun haqiqatlarini o'zida jamlagan hikoya har bir detalga, obrazga e'tibor berishni talab qiladi. Asarda davrning muammolaridan bo'lmish qashshoqlik, ilmsizlik, loqaydlik qoralanadi. Mana shu illatlarni atrofida voqaealar birlashtiriladi. Iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli kishilarning ijtimoiy imkoniyatlari ham chegaralanishi haqida so'z yuritiladi. Boy va kambag'allar o'rtasidagi farq, munosabatlar va inson qadr-qimmati o'sha davr muhitida yoritib beriladi. Xalq orasida bir naql yuradi : „, Yer yuzida yomon insonlar ko'p emas, ularga qarshi kurashmaydiganlar ko'p". Hikoyada ham ana shunday uchinchi tabaqaning qurboni, bemor ayol sifatida butun boshli millatning o'sha davrdagi taqdiri ochib beriladi.

"O'g'ri" hikoyasida "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin" degan ibora qo'llangan. Endi yaxshilab o'ylab qarajak, dehqonning ham ho'kizi yo'qolganiyu ham uyi kuyganligini ko'rishimiz mumkin. Soddagina Qobil bobo qiyofasida o'sha davrdagi oddiy ishonuvchan xalqni, amaldorlar qiyofasida esa xalqni boshiga ish tushganda xalqni borini yeydigan mansabdor shaxslarni juda ravshan tasvirlab berilganligini anglaymiz. Abdulla Qahhor bu asarda maqol va iboralardan juda o'rinli foydalangan. Hatto epigrafning birgina o'zi butun boshli hikoya mazmunini keltirib chiqargan. Ya'niki "Otning o'limi, itning bayrami". Bu bilan Abdulla Qahhor "ot Qobil bobodek oddiy insonlar bo'lsa, it ularning boshiga ish tushganda qorni to'yadigan amaldorlar qiyofasidir" – deb tasvirlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 6-sinf Adabiyot darsligi I qism(2017) —Toshkent, Ma'naviyat,108-118-betlar
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <https://talaba.su>
4. <https://www.ziyouz.com>
5. Abdulla Qahhor .Asarlar.Besh jildlik.Birinchi jild ."G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti" Toshkent 1987